

SONNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

pedagogika fakulteti talabalari

Salomova Risolat Yusupovna

Usmonova Yulduz Nazir qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi sonlar so'z turkumi sifatida o'rganilib, ularning leksik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Sonlarning turlari, gapda tutgan o'rni, morfologik shakllanishi hamda sintaktik funksiyalari yoritiladi. Miqdor, tartib, so'roq va umumlashtiruvchi sonlarning ishlatilish holatlari misollar orqali ko'rib chiqiladi. Maqola o'zbek tilshunosligida sonlar so'z turkumining o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Абстрактный: В данной статье изучаются числа в узбекском языке как класс слов и анализируются их лексические и грамматические особенности. Рассматриваются типы числительных, их роль в речи, морфологическое образование и синтаксические функции. На примерах рассматривается употребление количественных, порядковых, вопросительных и обобщающих числительных. Статья призвана глубже понять роль и значение категории числа в узбекском языкознании.

Abstract: This article studies numbers in the Uzbek language as a word class, analyzing their lexical and grammatical features. The types of numbers, their place in speech, morphological formation and syntactic functions are highlighted. The use of quantitative, ordinal, interrogative and generalizing numbers is considered through examples. The article serves to provide a deeper understanding of the role and importance of the number word class in Uzbek linguistics.

Kalit soʻzlar: sonlar, miqdor sonlar, tartib sonlar, leksik xususiyatlar, grammatik kategoriyalar, morfologik tahlil, sintaktik funksiyalar, leksik-semantik guruhlar.

Kirish (tahrirlangan)

Oʻzbek tilshunosligida soʻz turkumlarini oʻrganish til tizimini chuqur anglashda muhim nazariy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi. Soʻz turkumlari orasida sonlar alohida oʻringa ega boʻlib, ular nafaqat miqdor va tartibni ifodalash vositasi, balki grammatik qurilmalar, sintaktik strukturalar va semantik munosabatlar orqali nutqning aniqligi, mantiqiyli va aniq faktlarga asoslanganligini taʼminlaydi.

Sonlar — predmetlar soni, tartibi, umumlashtiruvchi yoki noaniq miqdori hamda ularga doir soʻroqlarni ifodalovchi mustaqil soʻz turkumidir. Ular leksik jihatdan konkret va abstrakt tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ega boʻlsa, grammatik jihatdan oʻziga xos morfologik va sintaktik qonuniyatlarga boʻysunadi. Shu sababli sonlar tilshunoslikda faqat grammatik vosita sifatida emas, balki leksik-semantik, uslubiy va mantiqiy tahlil nuqtayi nazaridan ham alohida eʼtibor bilan oʻrganiladi. Mazkur maqolada oʻzbek tilidagi sonlar soʻz turkumining leksik-semantik xususiyatlari, morfologik shakllanishi, sintaktik funksiyalari, turkumlanish mezonlari va nutqdagi qoʻllanilish imkoniyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Xususan, miqdor, tartib, soʻroq, taxminiy va umumlashtiruvchi sonlarning oʻzaro farqlari, ularning gapdagi vazifalari va grammatik moslashuvchanligi yoritiladi. Maqola son soʻz turkumining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur oʻrganishga, oʻzbek tilining grammatik tizimidagi oʻrnini aniqlashtirishga hamda bu sohadagi lingvistik bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Oʻzbek tilida sonlar mustaqil soʻz turkumi sifatida alohida oʻrganiladi. Ular oʻzining leksik va grammatik xususiyatlari, gapdagi vazifasi, morfologik shakllanishi hamda semantik koʻlamining kengligi bilan ajralib turadi. Sonlar asosan miqdor va tartib ifodalovchi vosita sifatida til tizimida faol ishtirok etadi.

Yuqorida sanab oʻtganimizdek sonning bor nechta xususiyatlari mavjud va ulardan birinchisi leksik-semantik xususiyatlaridir. Sonlar leksik maʼnosi jihatdan miqdorni, tartibni,

nomalumlikni, soʻroq va umumlashtirish kabi ma'nolarni ifodalovchi birliklardir. Masalan: Miqdorni bildirgan sonlarga misol keltirsak: bir, besh, oʻn ikki, ming, million va hakoza. Tartib sonlar: birinchi, yettinchi, oʻninchi. Noma'lumlikni bildirgan sonlar: birnechta, bir qancha. Umumlashtiruvchi sonlar: bittalab, beshtalab, yuzlab. Har bir guruh oʻziga xos semantik xususiyatga ega boʻlib, gapda alohida nutqiy vazifani bajaradi.

Sonlarning morfologik xususiyatlari.

Sonlar grammatik jihatdan oʻziga xos xususiyatlarga ega. Quyida biz bir nechta koʻrinishini koʻrib chiqamiz.

a) Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi shakllar hosil qilinadi. Masalan: bir (sanoq son)— birinchi (tartib son), besh (sanoq son)— beshtalab (chama son), ikki (sanoq son)—ikkinchi (tartib son).

b) Qarindosh soʻzlar shaklida paydo boʻlgan soʻzlar:

uch—uchlik (jamlovchi son)

toʻrt—toʻrtinchi—toʻrtinchalik

Sonlar koʻplik qoʻshimchasini olmaydi, lekin boshqa turdosh birliklar bilan birikib murakkab tuzilmalar hosil qilinadi: Masalan, ikki-uchta, oʻn beshta, ming yetti yuz.

Sonning sintaktik xususiyatlari. Sonlar gapda turli sintaktik vazifalar oʻrnida keladi. Aniqllovchi vazifasida: Besh bola oʻynayabdi. U birinchi oʻrinni egalladi. Ega: Beshovi keldi. Toʻldiruvchi: Olmaning oltitasini ukasiga berdi. Kesim: Ikki karra ikki toʻrt.

Son soʻz turkumi sifatida predmet ifodalovchisi bilan munosabatga kirishadi va shu jihati bilan sifat hamda ravish turkumiga yaqin turadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi bu soʻzlar predmetning noaniq miqdorini bildiruvchi oz, koʻp, moʻlkabi sifatdan ajralib turadi. Sifat soʻz turkumi raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan beriladi: uch-toʻrt kun. Bu esa ular anglatgan miqdor noaniqligi ham nisbiy ekanligidan dalolat beradi. 2 Demak, son soʻz turkumi miqdorni bildirgani sababli sifat soʻz turkumiga oʻxshaydi, ammo, son aniq miqdorni bilan sifatdan

farq qiladi. Shuningden olti-yetti shaklida kelsa u chama son ekanligini anglatadi. Sonlar ma'no jihatidan ikki guruhga ajraladi. Bularning birinchisi tartib sonlar bo'lib, ular – (i)nchi qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi.. Masalan: Yo'lchi birinchi kun bozorni aylana-aylana, kechga qadar uch-to'rt yerga yuk orqaladi. Nihoyat to'rtinchikuni ov baroridan keldi. Ikkinchi turi esa miqdor sonlari bo'lib, u o'z navbatida oltita guruhga bo'linadi. Birinchisi sanoq son bo'lib, uning tarkibida qo'shimcha bo'lmaydi. Sanoq son predmetni sanash, donalab ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ikkinchisi predmetning taqsimlanganligini bildiruvchi son bo'lib, u -tadan qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi. Buvim muzqaymoqni hammaga bittadan berdi. Bozorvoy olmalarni har o'g'liga ikkitadan berdi. Uchinchi turi dona son hisoblanadi va u sanoq songa -ta qo'shimchasi va dona so'zi yordamida hosil qilinadi. Bu to'g'rida ham talay tortishish borgandan so'ng, oxiri beshta qo'lmoshina belgilanib, taklifi ham tovushga qo'yiladigan bo'ldi. Salima novvoydan besh donagina non olib kelibdi. To'rtinchi turi chama son. U ikki xil usul bilan sonlarni juftlash va -tacha, -lab, -larcha qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi. Masalan, Bankda yigirmatacha odam navbat kutishayotgandi. Urush millionlab oilalarning yostig'ni quritdi. Beshinchi turi jamlovchi son bo'lib, u ham uchta -ov, -ala, -ovlon qo'shimchalari yordamida yasaladi. Bugun maktabga Nargiza ikkovimiz bordik. Hoy, sizlar, ikkalangiz ham oldimga tez kelinglar. Oltinchi turi kasr son. U chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. o'ndan ikki, beshdan bir singari.

Xulosa: O'zbek tilida sonlar mustaqil so'z turkumi sifatida alohida grammatik va semantik ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat miqdor va tartibni ifodalaydi, balki murakkab sintaktik tuzilmalar, stilistik uslublar hamda mantiqiy bayonlarda ham faol ishtirok etadi. Sonlarning leksik-semantik guruhlarga bo'linishi ularning ma'no ko'lamini kengaytiradi, morfologik shakllanishi esa ularni umumiy grammatik tizimga moslashtiradi. Sonlar gapdagi turli sintaktik vazifalarni bajarish orqali nutqning aniqligini ta'minlaydi. Ularning kontekstga mos holda ishlatilishi tilning stilistik boyligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sonlarning rasmiy, ilmiy, badiiy va og'zaki uslublardagi qo'llanilishi ularning uslubiy moslashuvchanligini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, sonlarni chuqur o'rganish nafaqat grammatik bilimlarni boyitadi, balki o'zbek tilining mantiqiy, stilistik va kommunikativ imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu esa til tizimini mukammal o'zlashtirish va ifoda vositalaridan to'g'ri foydalanish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" —Toshkent: Fan, 2006
2. Rasulov A. Jo'rayev N. O'zbek tili grammatikasi: Morfologiya—Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2013.
3. Bobojonov Sh. O'zbek tili nazariy grammatikasi, —Toshkent TDPU nashriyoti, 2020.
4. Karimov N. Til va Tafakkur. Grammatik birliklarning ma'no aspektlari. —Toshkent: Fan, 2011.
5. Jo'rayev N. Hozirgi o'zbek stilistikasi. — Toshkent: Fan, 2009
6. Jo'rayev N. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. —Toshkent: O'zbekiston, 2010.